

VOYAGA YETMAGANLAR XULQ-ATVORIDAGI JINOIY XATTI- HARAKATLAR PROFILAKTIKASI MASALALARI

Abdurasulov Rustam Abduraimovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

“Amaliy psixologiya” kafedrasini professori,

psixologiya fanlari doktori (DSc)

Tel: +998915926800

Email: abdurasulovrustam8@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada Ona Vatanimizda tub islohotlarni amalgamoshirilayotganligi, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, barcha sohalarda iqtidorli yoshlarimiz o’z bilim va mahoratlarini ko’rsatib, ijtimoiy maqomga ega bo’lib borayotganligi hamda shu davrda voyaga yetmaganlar xulq-atvoridagi jinoiy xatti-harakatlar profilaktikasi masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: insoniyatning tinchligi, xavfsizligi, diniy ekstremizm, terrorizm, kiberjinoyatlar, zo’rovonliklar, huquqbuzarliklar, yoshlar jinoyatlari, jismoniy tarbiya, islohotlar, iqtidorli yoshlar, giyohvandlik, ichkilikbozlik, turli g’oyalari.

Mamlakatimiz oldida turgan ulkan maqsadlarga erishish Vatanimiz kelajagi, birinchi navbatda yoshlarimizga, ularning har tomonlama barkamol insonlar bo’lib voyaga yetishiga bog’liqdir. Bugungi kunda respublikamiz aholisining yarmidan ko’prog’ini yoshlar tashkil qiladi.

Mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va farovonlikni yanada mustahkamlashning muhim sharti oilalarda sog’lom ma’naviy muhitni, xususan, o’zaro hurmat-ehtirom, er-xotin o’rtasida, ota-onalar bilan farzandlar, qaynona-kelin o’rtasida, qo’ni-qo’shnilar o’rtasida mehr-oqibat ruhini yaratish, qiz bolalarni - bo’lajak onalarni - jismonan sog’lom va intellektual rivojlangan tarzda shakllantirish, ularning akademik liseylar va kasb-hunar kollejlarida albatta ta’lim olishini, zamonaviy bilimlar va kasb-hunarlarga ega bo’lishlarini ta’minalash, ularning hayotda munosib o’rinni egallashlarida, kelajakda sog’lom va mustahkam oila qurishlarida asosiy shart hisoblanmish mustahkam hayotiy pozisiyani va mustaqil fikrlashni shakllantirish yoshlarni hayotga qiziqishini orttirib, komil inson bo’lishlariga yordam beradi.

Yosh avlod tarbiyasi ham davlatimiz e’tiboridaligi quvonchlidir. 2023 yilda yurtimizda 70 ta yangi maktab qurilib, 460 ta maktab kengaytirilayotgani, ikki smenalik ta’limni yo’q bo’lishi, Milliy o’zligimiz timsoli, ma’naviyatimiz asosi bo’lgan ona tilimizga e’tibor yanada kuchaytirilishi ham butun xalqimiz hayotiga oid katta masalalardan biridir. “Albatta, chet tilini bilish — zamon talabi. Maktablarda ta’lim sifati hamda jamiyatda

o‘qituvchi kasbi nufuzini oshirish, sharoitlarini yaxshilash 2025 yildagi eng asosiy vazifalarimizdan biri bo‘ladi.

Yoshlar orasida jismoniy tarbiya va sportni keng ommalashtirish, yoshlarni, ayniqsa qishloq joylarda qizlarni sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalg etish, yangi sport obyektlarini qurish, ishlab turganlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy sport uskunalarini va anjomlari bilan jihozlash, yuqori malakali trener kadrlar va murabbiylar bilan ta’minalash muhim ahamiyatga ega.

«Men har gal yoshlarimiz bilan uchrashganimda sizlarning g‘ayrat-shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko‘nglim tog‘day ko‘tariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaaho xazinasi sifatida qadrlayman », - dedi Shavkat Mirziyoyev Yoshlar forumida so‘zlagan nutqida.

«Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo‘l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g‘ayraringiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o‘z oldimizga ulkan marralar qo‘yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo‘lg‘usi Renessansning eng muhim bo‘g‘inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo‘shadilar».

Shuning uchun mustaqilligimizni qo‘lga kiritilgan ilk kunlaridanoq yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini respublikamiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Buning natijasida mamlakatimizda barkamol avlod kamol topmoqda.

Barcha sohalarda iqtidorli yoshlarimiz o‘z bilim va mahoratlarini ko‘rsatib, ijtimoiy maqomga ega bo‘lib bormoqdalar. Yoshlarning ta’lim-tarbiya olishlari, jamiyatda o‘z mavqyeiga ega bo‘lishlari, muvaffaqiyatlarga erishishlari yo‘lida Respublikamiz hukumati tomonidan zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining, avvalo qizlarning ish bilan bandligini ta’minalash chora-tadbirlarini amalga oshirish, o‘z biznesini yo‘lga qo‘yish ishtiyoyidagi yoshlarga imtiyozli kreditlar, yosh oilalarga uy-joy sotib olish va qurish uchun ipoteka kreditlari, uzoq muddat foydalilaniladigan tovarlar xarid qilish uchun iste’mol kreditlari ajratish ishlarini yanada kengaytirilmoqda. Har tomonlama sog‘lom bolani shakllantirishda ta’lim tizimining rolini kuchaytirish, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini yanada rivojlantirish, boshlang‘ich ta’limning yuqori sifatini ta’minalab, ilg‘or pedagogika va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini amaliyatga keng joriy etgan holda bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan oshirish, sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish tadbiralarini amalga oshirish zarur.

Yoshlarimizga bilim olishi, o‘zlariga munosib kasbni egallashi va erkin mehnat qilishlari uchun zarur shuncha shart-sharoit yaratilganligiga qaramasdan, ayrim yoshlarimiz huquqbazarlik, ya’ni jinoyat yo‘liga kirib ketmoqdalar.

Eng xavfli tomoni shundaki, ba’zi yoshlarimiz butun insoniyatning tinchligi va xavfsizligiga tahdid soluvchi diniy ekstremizm va terrorizm kabi jinoyatlarni sodir etayotgan shaxslar ta’siriga tushib qolishidir. Bu shaxslar asosan dindorlar, ziyorilar, ilmiy xodimlar, talaba-yoshlar o’rtasidan o’z tarafdarlarini tanlaydilar.

Respublikamizda yangi ijtimoiy munosabatlar shakllanayotgan juda murakkab bir sharoitda g’oyat qat’iyatlik bilan ish ko’rishi, o’tish davrida to‘g’ri yo‘lni tanlay bilganligi mamlakatimizda barqarorlik saqlanishning muhim omili bo‘ldi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida sog‘lom muhit yaratish uchun aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish boshlangan islohotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadida tinimsiz izlanishlar lozim ekanligini talab qilmoqda. Ayniqsa yoshlarning turli oqimlarga tushib qolmasligi uchun barcha imkoyatlarni ishga solish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yoshlarning huquqbazarlik yo‘liga kirib qolishiga quyidagilarni sabab qilib ko‘rsatish mumkin. Yoshlarni foydali mehnatga jalb etish, tarbiyalash, huquqbazarlik va jinoyatchilikning oldini olishga mutasaddi bo‘lgan ta’lim muassasalarini, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, voyaga yetmaganlar bilan ishovchi inspektorlarning kamligi, ta’lim muassasalarida psixolog kadirlarning yetishmasligi va boshqa mas’ul idoralarning faoliyatidagi jiddiy kamchiliklar. Ayrim joylarda huquqiy-tarbiyaviy ishlarning susaytirib yuborilganligi, nazoratning sustligi, ish bilan ta’minalash kabi masalalarning qoniqarli hal etilmayotganligi yoshlar o’rtasida turli huquqbazarliklar va jinoyatlar sodir etish, giyohvandlik va ichkilikbozlikka berilish, turli diniy aqidaparastlik g‘oyalariga ergashish kabi salbiy holatlarni keltirib chiqarmoqda.

Huquqbazarlik sodir etgan shaxslarning ma’lum qismining hayotiy faoliyati ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmaydi va ular asosan bekorchilik yoki bo‘s sh vaqtlarida jinoyat yoki huquqbazarlik sodir etishi olimlarimiz tomonidan ta’kidlab o‘tilgan.

Shaxs tarbiyasi bilan faqat tarbiya va o‘quv muassasalarini shug‘ullanishi kerak degan fikrga kelish noto‘g’ridir, asosiy tarbiya avvalo oilada beriladi. Mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va farovonlikni yanada mustahkamlashning muhim sharti sifatida oilalarda sog‘lom ma’naviy muhitni, xususan, o‘zaro hurmat-ehtirom, er-xotin o’rtasida, ota-onalar bilan farzandlar, qaynona-kelin o’rtasida, qo‘ni-qo‘shnilar o’rtasida mehr-oqibat ruhini yaratishdan iborat.

Ammo ta’lim muassasalarini ham tarbiya ishlaridan soqit qilinmaydi, albatta. Chunki, shaxs oiladan tashqaridagi ta’limning muhim qismini maktabdan oladi va bu orqali ijtimoiy hayotga kirib boradi.

Yoshlar tarbiyasi bilan shug‘ullanishda oila, ta’lim muassasalarini bilan bir qatorda mahallaning ham o‘rni muhimdir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev «Mana shunday murakkab sharoitda yoshlarimiz sezgir va ogoh bo‘lishi, har bir masalada, avvalo Vatan manfaatlarini o‘ylab ish tutishi zarur. Ilm-ma’rifat va kasb-hunarga intilish, oilani muqaddas bilish, ma’naviy poklik, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, qadriyatlarimizga sadoqat kabi ezgu fazilatlar azaldan xalqimiz, millatimizning qonida bo‘lib kelgan. Biz mana shunday bebahoherosimizni nafaqat asrashimiz, balki uni yanada boyitishimiz, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishimiz kerak.

Shu o‘rinda men hurmatli ota-onalar, bobolarimiz va momolarimizni, jonkuyar ustoz va murabbiylarni, muhtaram ziyorolarimiz, keng jamoatchiligidan bu masalaga befarq bo‘lmasdan, yoshlar tarbiyasiga qaratilgan ishlarimizni yanada kuchaytirishga da’vat etaman.

Qanchalik qiyin bo‘lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo‘yicha o‘zimizga xos va ta’sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg‘unchi va zararli g‘oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma’naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo‘lishingiz kerak. Xalqimizning ma’naviy qudrati va boqiy an’analarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz» - dedi Shavkat Mirziyoyev.

«Bugun o‘z tengdoshlariga ibrat bo‘layotgan, jamiyatdagi yangilanishlar jarayonida faol ishtirok etayotgan yoshlarimiz juda ko‘p. Lekin, hayotda o‘z o‘rnini topishga qiynalayotgan, adashgan, ko‘makka muhtojlari ham yo‘q emas. Shuning uchun yoshlar, ayniqsa, ularning uyushmagan qatlami bilan mas’ullar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot o‘rnatishtga xizmat qiladigan „Yoshlar murojaati“ elektron platformasini yaratish vazifasi topshiriladi», - dedi davlat rahbari.

Navqiron avlod vakillarida biznes ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi.

Xulosa qilib aytganda, huquqbazarlik sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish yoki jazo choralarini kuchaytirish bilan jinoyatchilikni butunlay bartaraf etib bo‘lmaydi. Eng muhimi yoshlarning bilim olishi, mehnat qilishi bilan bog‘liq muammolarni ijobjiy hal etishi, huquqiy, pedagogik va psixologik tarbiyani kuchaytirish yo‘li bilan ko‘zlagan maqsadimizga erishishimiz mumkin.

Huquqbazarlik va jinoyat sodir etishga moyilligi yuqori va jinoyat sodir etayotganlarning aksariyatini kuzatadigan bo‘lsak yolg‘iz onalar yoki yolg‘iz otalar tomonidan tarbiya qilinayotgan voyaga yetmagan o‘smirlar tomonidan kelib chiqmoqda. Ularni tarbiyasida ota yoki onaning o‘rni yaqqol sezilib turadi. Ota va onalar tomonidan ijtimoiy lashish vaqtida o‘zini o‘rnini topishi uchun kerak bo‘ladigan xulq-atvorining ijobjiy omillar yo‘qligi ko‘rinadi. Shuning uchun jamiyatda oilalarni mustahkamlash farzandlarni barkamol qilib tarbiyalash davlat va jamiyatdagi qonunlarga hurmat ruhida tariyalashimiz muhimdir.

Xalqimizning asriy an’analarini hisobga olib, «Ona va bola sog‘lom bo‘lsa, oila baxtli, oila baxtli bo‘lsa, jamiyat mustahkam bo‘ladi» degan hayotbaxsh qadriyat va oljanob g‘oya jamiyatda chuqurroq anglab yetilishiga va qaror topishiga yo‘naltirilgan keng chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarning darajasini yanada yuksaltirish, oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, jamiyatda onalarga alohida hurmat-ehtirom muhitini shakllantirish, sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, oilaning mustahkam, sog‘lom va ahil bo‘lishida mahalliy davlat hokimiyati organlari va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mirziyoyev. O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan, 25 dekabr 2020 yil, 18:00 siyosat.
2. Rajabova M. Diniy ekstremizm va terrorchilik. «Adolat» gazetasi. 2000 yil 3 noyabr soni
3. Usmonaliyev M., Karaketov Y. Kriminologiya. Toshkent, «Yangi asr avlodii». 2001 y. 281-bet.
4. Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (XVI-XIX asr I yarmi) -Toshkent, Fan, 2006. - 240 b.
5. Kadirov O.S. "General psychology" study guide. Samarkand - 2022. -250 p.
6. Qodirov O.S. Yangi O‘zbekistonda tarbiyasi qiyin o‘smirlar bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari. // Ta’limda istiqbolli izlanishlar. – 2024. № 4, Buxoro – 2024. Б. 20-22.
7. Qodirov O.S.. Umumiy psixologiya // O‘quv qo‘llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.
8. Qodirov O.S., Xotamov Sh.N.. Ijtimoiy psixologiya //Darslik. - Samarqand, 2023.-346 b.
9. Shamsiyev U.B. Familu holding and pyersonalitu Gyenyesis "yedusational-myethodisal manual" Main Libraru of thye Asadyemu of Ssiyenses of Uzbyekistan" printing housye, 2016, Pagye 46.
10. www.ziyouz.com kutubxonasi
11. <https://www.norma.uz>